

# 5

## Har bir ota/ona Nyu-York shtatining "Every Student Succeeds Act"ga asoslangan rejasiga oid nimalarni bilishi kerak



### ESSA nima degani?

"Every Student Succeeds Act" (ESSA) federal byudjetdan davlat maktablariga ajratilayotgan mablag'dan shtatlar qanday foydalanishi tartiblarini belgilab beradigan federal qonundir. 2017-yil sentabr oyida Nyu-York shtati federal byudjetdan har yili oladigan taxminan 1,6 milliard AQSh dollari uchun reja topshirdi.

### Bu nima uchun kerak?

Nyu-York shtati barcha o'quvchilarning kimligi, qayerda yashashi, qaysi maktabga borishi va qayerlik ekanidan qat'iy nazar, maktabda muvaffaqiyatga erishishi va ravnaq topishini ta'minlashga harakat qiladi. Nyu-York shtatida 2016-yil kuzidan beri *barcha* o'quvchilarga tenglik, ta'lim olishga fursat va imkoniyat berishni targ'ib qiluvchi reja ishlab chiqish uchun takliflar qabul qilinmoqda.

### Ota-onalar nimalarni bilishi kerak?

Quyida rejaning ota-onalar va oilalar bilishi muhim bo'lgan eng muhim jihatlari keltirilmoqda. Reja haqida ko'proq ma'lumot olish uchun mana bu havolaga o'tishingiz kerak bo'ladi:

<http://www.p12.nysesd.gov/accountability/essa.html>

1

### Nyu-York shtati barchaning keng qamrovli ta'lim olishini qadrlaydi.

Ota-onalar va oilalar farzandining maktabi nafaqat fanlarni o'qitish, balki boshqa ko'plab sohalarda ham qanday faoliyat ko'rsatayotganini bilib qo'yishi kerak.

Maktablar va maktab okruglarining faoliyati har yili quydagi ko'rsatkichlar bilan baholanadi:

#### Barcha maktablar uchun

- Ingliz tili fanlari
- Matematika
- Tabiiy fanlar
- Ingliz tilini o'zlashtirish (ushbu tilda gapira olmaydiganlar uchun)
- Surunkali dars qoldirish (18 kundan ortiq dars qoldirish, istisnolar bilan)

#### O'rta maktablar uchun

- Ijtimoiy fanlar
- Maktabni bitirgan o'quvchilar foizi
- Kollej, ish va fuqarolik tayyorgarligi indeksi: murakkab fanlarni o'qish, texnik ta'lim sertifikatlarini olish va hk.

#### Kelgusi ko'rsatkichlar:

- Maktabdan vaqtinchalik yoki butunlay chetlashtirish hollari (2018-19-o'quv yili natijalaridan boshlab)
- O'rta maktabga tayyorlanish (ma'lumotlar qo'lga tekkandan so'ng)
- "O'qish muhiti" ko'rsatkichlari (masalan, sinfda o'qiyotgan o'quvchilar soni, til fanlariga oid saboqlarni olish imkoniyati)

2

### Nyu-York shtati imtihonlar vaqtini qisqartirib, imtihon olish tajribasini takomillashtirmoqchi.



2018-yilda 3-8-sinflarda ingliz tili va matematika fanlaridan har birini o'qitish ikki kunga qisqartiriladi.



Shtatda o'quvchilar bilimini baholashning yangi yo'llarini izlab topishga harakat qilinadi, jumladan o'quvchilardan sind ishlarini bajarish va taqdim etish so'raladi.

95%

Federal qonun har bir sinf va kichik guruh o'quvchilarining 95 foizidan imtihon olishni talab etidi. Nyu-York shtati ota-onalar, maktablar va maktab okruglari bilan davomatni oshirish yuzasidan ish olib boradi.



Nyu-York shtati matematika va aniq fanlardan testlarni boshqa tillarga tarjima qilishni davom ettiradi. Mablag' mavjud bo'lganda o'quvchilarning ona tilida til fanlaridan testlar o'tkaziladi.

3

### Nyu-York shtati o'quvchilar va mакtab rahbarlariga muvaffaqiyatga erishishiga va barcha o'quvchilar eng yaxshi pedagoglar qo'lida ta'lif olishiga yordam beradi.



Shtatning ta'lif sohasi mutasaddilari o'qituvchilar va maktablar yetakchilarining birinchi o'quv kuniga tayyorgarligi yaxshi ekaniga ishonch hosil qilish uchun o'zgarishlarni kuzatib boradi.



Nyu-York shtatida yuksak malakali o'qituvchilar juda ko'p. Barcha maktablar o'sha o'qituvchilarni jalb etib ishlashini ta'minlaymiz.

4

### Nyu-York shtatining ta'lif sohasi mutasaddilari ota-onalardan farzandi o'qiyotgan maktabda o'quv sharoitini yaxshilash talab qilingan hollarda qo'shimcha yordam kutadi.



Agar farzandingiz o'qiyotgan maktabdan o'qitish ishlari yaxshi emas deb topilsa...



... son'gra ota-onalar, o'qituvchilar va o'quvchilardan maktabdagi o'quv sharoitini yaxshilash yuzasidan takliflar so'raydi...



...va farzandingiz o'qiyotgan maktabda federal byudjetdan ajratilayotgan mablag'dan oqilona foydalanishi bo'yicha fikr bildirishingiz mumkin.

5

### Nyu-York shtati ota-onalarga farzandlari o'qiyotgan maktabning ahvoliga oid to'liq ma'lumot beradi.



Yangi ijtimoiy hisobotlarda o'quvchining imtihon baholari, sinfni bitirgan o'quvchilar foizi hamda maktablar, mакtab okruglari va shtatning ta'lif sohasidagi boshqa natijalari shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik to'g'risidagi qonunchilikka asosan aks etadi.

Hisobotlarga yana sinfdagi o'quvchilar soni yoki ularning til o'rganish darslarida qatnashish singari ota-onalarni qattiq o'lantirayotgan muammolar haqidagi ma'lumotlar ham kiritiladi.

Ota-onalar beriladigan yangi hisobotlar orqali har bir maktab har bir o'quvchi uchun qancha mablag' sarflayotganidan xabardor bo'lib turadi.



Maktab okruglari, maktablar va Nyu-York shtati Ta'lif departamenti ushbu ma'lumotlardan maktab okruglariga xarajatlarni oqilona sarflashida va o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirishning yangi usullarini o'ylab topishida yordam berishga qaratilgan hisobotlarida foydalanadi.